

XALQ TABOBATIDA CHAKANDA O'SIMLIGINING AHAMIYATI VA DORIVOR XUSUSIYATLARI

Mansurova Ra'no¹

Xudoyqulov Jamoliddin²

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

KEYWORDS

Hippophae, chakanda, chakanda moyi, chakanda mevasi, chakanda barglari, chakanda po'stlog'i, antioksidant, antiseptik, yallig'lanishga qarshi, teri parvarishi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Osiyo va Yevropada keng tarqalgan chakanda o'simligining geobotanikasi, umumiy tuzilishi bilan birgalikda kimyoviy tarkibi, antioksidantlik, antiseptik, reparative (tiklovchi) xossalari va o'simlik turli qismlarining xalq tabobatida qo'llanilishi (teri parvarishi, yallig'lanish, hazm tizimi kasalliklar va hkz.) haqida bayon etilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15333910**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish: Chakanda (Hippophae) – jiydadooshlar oilasiga mansub daraxtsimon yoki butasimon mevali va dorivor o'simlik. Yevroosiyoning iliq mintaqalarida 3 turi tarqalgan. Sharqiy va G'arbiy Sibir, Kavkaz va O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda daryo sohillari va to'qayzorlarda chakandaning jumrutsimon turi yovvoyi holda o'sadi. Rossiyaning Oltoy va Sibir zonalarida madaniylashtirilgan navlari o'stiriladi. Tabiiy o'sadigan chakandazorlardan ham keng foydalaniladi. Uning lotin tilidagi nomi yunon tilidan olingan bo'lib, "hippo" – ot, "phoe" – yorqin, yaltiroq ma'nolarini anglatadi. Sababi qadimgi Yunonistonda otlar ozig'iga chakanda qo'shib berilganda, ularda sezilarli vazn ortishi kuzatilgan va ularning yollari yarqirab turgan.

Botanik tavsifi: Chakanda yorug'savar, tez o'suvchi, sovuqqa ancha bardoshli (-45 C), balandligi 1.5-6 metrga yetadigan, ba'zan kichik daraxt holatida o'sadigan tikanli buta. Yovvoyi holda o'sgan chakanda butalarining umri 30-40 yil, madaniylashtirilgan navlariniki esa 20-25 yil. Chakanda balandligi 1.5-6 metrga yetadigan, ba'zan kichik daraxt holatida o'sadigan tikanli buta. Yovvoyi holda o'sgan chakanda butalarining umri 30-40 yil, madaniylashtirilgan navlariniki esa 20-25 yil. Barglari oddiy, navbatlashib joylashgan, lansetsimon yoki chiziqli-lansetsimon, uzunligi 2-8 sm, eni 0.4-1 sm. Barglari ustki tomondan

¹ Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-sonli davolash ishi fakulteti talabasi

² Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

yashil, ostki tomondan kumushsimon-oqish, qoplag'ich tuklar bilan qoplangan. Barglarida mikroskopik tangachasimon tuklar mavjud bo'lib, ular barglarning ostki tomoniga kumushsimon tus beradi. Chakanda ikki uyli o'simlik – erkak va urg'ochi gullar alohida o'simliklarida joylashgan. Gullarning chamasiga 12-15 tasidan faqat bittasi meva beradi. Gullab-mevalanadigan davri aprel-may oylarida. Asosan shamol yordamida changlanadi (anemofil). Mevasi suvli, sharsimon yoki tuxumsimon, diametri 6-10 mm, to'q sariq, zarg'aldoq yoki qizil rangli, yaltiroq, yog'li, nordon-shirin ta'mli. Har bir mekada bitta urug' bo'ladi. Mevalari 3-3.5 oy ichida yetiladi, odatda avgust-sentabr oylarida. Urug'i qalin qobiqli, yaltiroq, to'q jigarrang, uzunchoq-ovalsimon.



Asosiy qism: Chakanda asrlar davomida o'zining shifobaxsh xususiyatlari bilan insoniyatga xizmat qilib kelmoqda. U o'zining inson organizmi uchun kerakli bo'lgan moddalar tutuvchi boy tarkibiy qismi bilan ajralib turadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, uning nafaqat ma'lum bir qismigina emas, balki turli qismlari (organlari) xalq tabobatida qo'llanilishi mumkin. Chakanda yog'i, bargi va mevalari, hamda po'stloq va shoxlari dorivorlik xususiyatiga ega, bu xususiyatlarni inobatga olgan holda "chakanda – tabiatning noyob in'omi" deya ta'riflashda adashmagan bo'lamiz. Quyida uning turli tarkibiy qismlarining dorivor xususiyati bilan tanishib chiqamiz.

Chakanda Qismi	Tarkibi	Foydali Xususiyatlar	Ta'sir
Chakanda Moy	To'yinmagan yog' kislotalari, vitamin A, E, flavonoidlar, polifenollar	Antioksidant, yallig'lanishga qarshi, teri parvarishi va tiklovchi	Yallig'lanishni kamaytiradi, terini yangilaydi, yaralarni tez tiklaydi.
Chakanda Mevasi	Vitaminlar (A, E, K, B), Omega-7 (palmitolein kislotasi), flavonoidlar, organik kislotalar	Teri holatini yaxshilash, antioksidant, hazm va qon aylanish tizimlariga ta'sir	Teri holatini yaxshilaydi, yurak va qon aylanishiga ijobiy ta'sir qiladi.
Chakanda Barglari	Flavonoidlar, tanninlar, vitamin C	Antioksidant, antiseptik, yallig'lanishga qarshi	Teri muammolarini davolaydi, kuyish va jarohatlarni tiklashda

Chakanda Qismi	Tarkibi	Foydali Xususiyatlar	Ta'sir
			yordam beradi.
Chakanda Po'stlog'i va Shoxlari	Tanninlar, flavonoidlar, triterpenoidlar	Yallig'lanishga qarshi, tinchlantiruvchi, analjezik	Revmatizm va bo'g'im og'riqlarini kamaytiradi, mushaklarni tinchlantiradi.

Chakanda o'simligining turli qismlarining foydali xususiyatlari va biokimyoviy tarkibi.

Chakanda moyi: In vitro va in vivo usulida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chakanda moyi hayvon va odam organizmi uchun turli foydali xususiyatlarga ega bo'lib, u xususan yallig'lanish jarayonlariga va organizm umumiy oziqlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U chakandaning urug'i yoki mevasidan ajratib olinadi. Yetilgan urug'lari tarkibida 8-20 %, quritilgan meva etida esa 20-25 % moy saqlaydi. Moy lipofil konsistensiyaga ega bo'lib, tarkibida to'yinmagan yog' kislotalari, polistirollar hamda vitamin A va E uchraydi. Tarkibidagi vitaminlar tufayli teri parvarishi uchun ajoyib vosita hisoblanadi, ayniqsa, tashqi teri muammolari – kuyishlar va jarohatlar uchun hamda gastrit, ichki yaralar uchun tiklovchi xususiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, chakanda moyi anti-oksidant va yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega.

Chakanda mevasi: Sarg'ish rangli rezavor mevalari tarkibida turli vitaminlar, jumladan, vitamin A, E, K va B (B1, B2, B6) kabilar saqlaydi. Boshqa o'simliklarga qaraganda chakanda mevalarida ko'p miqdorda Omega-7 (palmitolein kislotalari) va kempferol va izoramnetin kabi flavonoidlar uchraydi. Bundan tashqari turli organik kislotalar (malat, sitrat, askorbin) va minerallar ham uchraydi. Yuqorida keltirilgan moddalar teri holatini yaxshilaydi, antioksidantlik xususiyatiga ega hamda hazm qilish va qon aylanish tizimlariga ijobiy ta'sir etadi.

Chakanda barglari va po'stlog'i: Barglari antioksidantlik va antiseptik xossalarga ega bo'lib, damlama ko'rinishida qabul qilish tavsiya etiladi. Ba'zi hollarda tashqi teri muammolarida damlanib, so'ngra kompress tayyorlanadi. Po'stloq va shoxlari esa tinchlantiruvchi, yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega bolib, qaynatmasidan xalq tabobatida revmatizm va bo'g'im og'riqlarida qo'llaniladi.

Xulosa: Chakanda o'simligi (Sea Buckthorn) boy kimyoviy tarkibi va ajoyib dorivorlik xususiyatlari bilan boshqa dorivor o'simliklar orasida ajralib turadi. Tarkib jihatlarini o'rganib, shuni xulosa qilamizki, chakanda tarkibidagi vitamin A va E hamda Omega-7 kabilar teriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va uni tiklashga yordam beradi va shu sababli aholi o'rtasida keng qo'llaniladi. Shuningdek, u antioksidantlik, antiseptik va yallig'lanishga qarshi ta'sirlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Li, T. S. C., & Schroeder, W. R. (1996). Sea buckthorn (*Hippophae rhamnoides* L.): A

multipurpose plant. *Journal of Ethnopharmacology*, 63(1), 1–10.

2. Geetha, S., Sai Ram, M., Singh, V., Ilavazhagan, G., & Sawhney, R. C. (2002). Antioxidant and immunomodulatory properties of seabuckthorn (*Hippophae rhamnoides*) – An in vitro study. *Journal of Ethnopharmacology*, 79(3), 373–378.

3. Rousi, A. (1971). The genus *Hippophaë* L. A taxonomic study. *Annales Botanici Fennici*, 8(2), 177–227.

4. Mansurova R.I. Barchasi adrenalini haqida: uning tarixiy kelib chiqishi, organizmda ishlab chiqarilishi va funksiyasi. // *Research Focus*. – 2025. -V.4. - №2. -P.137-140

5. Upadhyay, N. K., Kumar, M. S. Y., Gupta, A. (2010). Wound healing activity of Sea buckthorn (*Hippophae rhamnoides* L.) leaves extract. *Journal of Ethnopharmacology*, 125(3), 490–7.

6. Икромов Ш. А., Худойкулов Ж. И. ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ И МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ // *Research Focus*. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 146-150.

7. Амирова П. Ж., Худойкулов Ж. ЕСТЕСТВЕННЫЕ И СИНТЕТИЧЕСКИЕ НАРКОТИКИ: ПОЛЬЗА И ВРЕД // *Research Focus*. – 2025. – Т. 4. – №. 1. – С. 148-152.

8. Холмуродова Д. К., Исломов Л. Б., Худойкулов Ж. И. ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СЫРЬЯ // *IJODKOR O'QITUVCHI*. – 2023. – Т. 3. – №. 33. – С. 277-281.